

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# 2026 APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari  
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

## Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	11
<b>Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.</b>	
ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ .....	21
<b>Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна</b>	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIVAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
<b>Karayev Payzillaxon Yusufxonovich</b>	
FERMER XO'JALIKLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
<b>Xakimov Zafar Ibragimovich</b>	
IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI .....	38
<b>Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi</b>	
QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIVALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	44
<b>Igitov Jurabek Kuzibekovich</b>	
ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА .....	50
<b>Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПАЕНС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	56
<b>Халтурдиев Айтмурат Маратович</b>	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI .....	64
<b>Saatova Lolaxon Ergashevna</b>	
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI .....	71
<b>Pulatov Abdullo</b>	
MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	76
<b>Axmedov Zafarjon Zokirjon</b>	
МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ .....	80
<b>Ташпулатов Дильмурад Рустамович</b>	
KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	85
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>	
INNOVATSION MENEJMENTDA KOMMUNIKATSIYA VA TASHKILY MOSLASHUVCHANLIKNING ROLI: O'ZBEKISTON SHAROITI MISOLIDA .....	92
<b>Atamatov Abdusalil Salomovich</b>	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING AHAMIYATI VA UNING SALOHİYATINI BELGILOVCHI OMILLAR .....	97
<b>Qodirov Baxodir Tursunovich, To'rayev Qaxramon Zokirjonovich</b>	



NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH .....	103
<b>Raximova Moxigul Isroiljonovna</b>	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI .....	107
<b>Davitova Shaxzoda Doniyor qizi</b>	
ANALYSIS OF THE FORMATION OF MARKET DEMAND AND THE ESTABLISHMENT OF EQUILIBRIUM IN A MARKET ECONOMY .....	112
<b>Kamilova Nargiza</b>	
BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINI NANOTEXNOLOGIYA SOHASIDAGI BILIMLARNI TAQDIM ETISHGA VA O'QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI .....	115
<b>Sottarov Abdulvali Umirqulovich</b>	
INTEGRATING AI INTO STRATEGIC MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS .....	120
<b>Uktamova Durdona Bakhtiyor qizi, Sultonali Umaraliyevich Mekhmonov</b>	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA IJTIMOYIY HISOBOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI .....	130
<b>Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich</b>	
SANOAT KLASTERINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI.....	135
<b>Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI .....	140
<b>Yangiboev Rustam Berdiyrovich</b>	
MINTAQA IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	145
<b>Turopova Nigora Xolmurod qizi</b>	
ЭКОЛОГИЯ ТУРИСТА КАК МЕТОД СОЗДАНИЯ КОМФОРТНОЙ И УСТОЙЧИВОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ.....	149
<b>Наурызбаев Алиакбар Рустамович</b>	
BINO VA INSHOOTLARNI BARPO ETISHDA PREFABRIKATSIYALASHGAN HAMDA MODULLI QURILISH TIZIMLARINI AQLLI BOSHQARUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	152
<b>Solijonov Javoxirmirzo Obidjon o'g'li</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AKSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	163
<b>Saidaxmedova Aida Mirzayevna</b>	
O'ZBEKISTONDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	169
<b>Abdufarmonov Farrux Faxriddinovich</b>	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SIFATI VA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI TAHLILI .....	174
<b>Safarova Muxabbat Radjabovna</b>	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATI VA DEPOZIT BAZASI DINAMIKASINING BANK LIKVIDLIGIGA TA'SIRI .....	178
<b>Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISLOMIY MOLIYANING BANK TIZIMIGA INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA TRANSFORMATSIYA YO'NALISHLARI .....	186
<b>Adilov Zuxriddin Marip o'g'li</b>	
SAMARQAND VILOYATI SANOATINING HUDUDIY TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	190
<b>Uralov Eliboy Omonovich</b>	



DIVERSIFIKATSIYALASHUV ASOSIDA QURILISH TARMOG' I RIVOJLANISHINI KO'P OMILLI BOG'LANISHLAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH.....	194
<i>Yembergenova Aynur Aydosbaevna</i>	
ЩЕБЕНОЧНО-МАСТИЧНЫЙ АСФАЛЬТОБЕТОН В КИТАЕ: СОСТАВ, СВОЙСТВА, ИННОВАЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ.....	201
<i>Карабаев Абдужаббор Мелиевич, Занг Хайфей</i>	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SUBYEKTIV RISKNI SHAKLLANTIRUVCHI KOGNITIV OMILLAR VA ULARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI .....	205
<i>Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov</i>	
HOMILADOR AYOLLAR UCHUN MAXSUS KIYIMLARNI LOYIHALASHDA ISTE'MOLCHILAR TALABLARINI O'RGANISH .....	211
<i>D.Sattarova, U.Vakhidova, D.Madiyarovna</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DAROMADLARIGA TA'SIR ETUVCHI STATISTIK INDIKATORLAR TIZIMINING METODOLOGIK ASOSLARI VA ULARNING TAHLILYI IMKONIYATLARI .....	217
<i>Atayev Jaxongir Erkinovich</i>	
KICHIK BIZNES INVESTITSION KREDITLARINI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISH.....	221
<i>M.O.Yuldoshova</i>	
HUDUDNING "YASHIL IQTISODIYOT" ASOSIDA RIVOJLANISHINI TADQIQ ETISH: KO'RSATKICHLAR TIZIMI VA BAHOLASH USULLARI .....	226
<i>Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li</i>	
O'ZBEKISTONDA SUV XO'JALIGI TIZIMIDAGI QAYTA TIKLANUVCHI HAVZALAR .....	231
<i>To'rayev Rasul Nortojiyevich, Seytov Aybek Jumabayevich, Uteuliyev Niyatbay Uteuliyevich, Haydarova Roziya Davronovna</i>	
KORXONALAR IQTISODIY BARQARORLIGINING NAZARIY MODELLARI VA SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASH MEKANIZMLARI .....	236
<i>Iminova Nargizaxon Akramovna</i>	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA SIYOSATI VA QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI .....	241
<i>Abduvaliyev Sanjar Abdurahmonovich</i>	
PAHTA VA MEVA-SABZAVOT YETISHTIRUVCHI FERMERLARDA TAVAKKALCHILIK XULQ-ATVORINING QIYOSIY TAHLILI: ISTIQBOL NAZARIYASI ASOSIDA.....	249
<i>Tadjiyev Abdusame Abduhamidovich</i>	
ФОРМИРОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВОЙ СТРАТЕГИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	253
<i>Алиев Абдулазиз Исмаилович, Кахрамонова Азиза Шухрат кизи</i>	
QQS TIZIMI SAMARADORLIGINI XALQARO INDIKATORLAR ASOSIDA BAHOLASH .....	259
<i>Eshkarayev Bobir Chariyevich</i>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA OZIYQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING INNOVATSION USULLARI .....	265
<i>Tadjimirzayev Anvar Abduvoxiidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEKANIZMINING AMALIY TAHLILLARI.....	273
<i>Hamroyev Sherzod Axtamovich</i>	
ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО СПРОСА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛЕ УЗБЕКИСТАНА.....	280
<i>Тен Марина Владимировна</i>	
O'ZBEKISTON SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DASTURLARINING IMPORT O'RNINI BOSISHDAGI SAMARADORLIGI TAHLILI .....	287
<i>Sobitova Ra'no Solidjonovna</i>	



NEFT-GAZ LOYIHALARIDA DAVLAT VA INVESTOR MANFAATLARINI MUVOFIQLASHTIRISHNING FISKAL-BOJXONA MEXANIZMLARI.....	290
<b>Mansurov Obid Zaynidinovich</b>	
QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH INSTRUMENTLARI .....	296
<b>Yahyoyev To'liqin Ismatulla o'g'li</b>	
QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TA'SIRI.....	300
<b>Jahongir Ruziboyevich Qosimov, Narzullayeva Charos</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELINING SEKTORLAR KESIMIDAGI RISKLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	306
<b>Norova Nozima Nabiyeвна</b>	
AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARIDA BREND STRATEGIYASINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MODELLARI.....	312
<b>Boboyev L Kadruxja Djuraxodjayeвich</b>	
HUDUD EKSPORT SALOHİYATINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA RCA INDEKSIDAN FOYDALANISH.....	318
<b>Xurramov Ramazon Allayor o'g'li</b>	
СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ БРЕНДОВ В АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ .....	325
<b>Бобоев Л Кадрухжа Джураходжаевич</b>	
HUDUDLARDA UY-JOY QURILISHI JARAYONINI TASHKIL ETISHNING QONUNIYATLARI VA TAMOIYILLARI.....	331
<b>Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li</b>	
OYNALI FASAD TIZIMLARINI MONTAJ QILISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI .....	339
<b>Inamov Boxodir Nizamovich, Ozodxo'jayev G'aybulla Sherzodxo'ja o'g'li</b>	
KLASSIK SHIFRLASH ALGORITMLARINING XUSUSIYATLARINI NEYRON TARMOQ ORQALI O'RGANISH.....	344
<b>Davlatov Mirzo-Ulug'bek Bobir o'g'li, Allanov Orif Menglimuratovich, Turdibekov Baxtiyor Baxodir o'gli</b>	
АЛГОРИТМ АДАПТАЦИИ ПАРАМЕТРОВ СИСТЕМ ИДЕНТИФИКАЦИИ ДИНАМИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ.....	350
<b>Сидиков Исамиддин Хакимович, Алимова Гулчехра Рахимжоновна, Ибрагимов Беғовот Шералиевич</b>	
ELEKTRON HUKUMATNING BARQAROR RIVOJLANISHI: QOZOG'ISTON VA O'ZBEKISTON TAJRIBASINING QIYOSIY TAHLILI.....	355
<b>Umarova Durdona Abdumannabovna</b>	
UY-JOY FONDI BOSHQARUVINING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	360
<b>Aminova Naima Umar qizi</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJI VA UNI TARTIBGA SOLISHDA MUVOZANATLI REGULYATIV SIYOSAT YURITISH.....	365
<b>Davlatov Ulug'bek Baxodirovich</b>	
HUDUDIY SANOAT ISHLAB CHIQRISHNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI .....	370
<b>Avliyaqulov Xudoyberdi</b>	
O'ZBEKISTONDA AHOLINI UY-JOY BILAN TA'MINLASH DASTURLARIDA MAVJUD MUAMMOLAR.....	374
<b>Xannarov Komiljon Karimovich</b>	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISH VA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINI MOTIVATSİYALASHGA OID TEXNOLOGIYALAR.....	380
<b>Bekmurodov Navruz Ergashevich</b>	



FORECASTING AND PROMISING DIRECTIONS OF INNOVATIVE INDUSTRIAL AND INVESTMENT DEVELOPMENT IN THE KASHKADARYA REGION.....	393
<b>Sattorov Shohruh</b>	
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПЫТАТЕЛЬНЫХ ЛАБОРАТОРИЙ НА ОСНОВЕ РАСШИРЕННОЙ РИСК-ОРИЕНТИРОВАННОЙ МОДЕЛИ С ВЕСОВЫМИ КОЭФФИЦИЕНТАМИ.....	400
<b>Загидуллина Карина Рафаиловна</b>	
РОЛЬ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ В РАЗВИТИИ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	405
<b>Viktoriya Kan</b>	
HUDUDLARDA SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI STATISTIK BAHOLASH.....	410
<b>Nizomov Maxmud Minvarovich</b>	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДОЛОГИИ SWOT-АНАЛИЗА ПРИ ФОРМИРОВАНИИ КОРПОРАТИВНОЙ СТРАТЕГИИ.....	414
<b>Махмудов Суннатжон Абдужаббор ўғли</b>	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARI BOSHQARUVI STRATEGIYALARINI SAMARALI TASHKIL ETISH.....	419
<b>Ubaydullayev Muhammadjon Abdusamad o'g'li</b>	
TRANSFORMATSION YETAKCHILIK VA XODIMLARNING INNOVATSION XULQ-ATVORI: KORPORATIV TASHKILOTLARDA EMPIRIK TADQIQOT.....	423
<b>Alimov Bobirjon</b>	
EKSPORTBOP QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI QIYMAT ZANJIRIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	432
<b>Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li, G.M.Abdulxayeva</b>	
ELEKTRON SAVDODA YASHIRIN IQTISODIY FAOLIYATNI QISQARTIRISHDA MOLIVAVIY NAZORAT MEKANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	437
<b>Iskandarova Munisa Hasan qizi</b>	
MAMLAKAT INNOVATSION FAOLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLARNING NAZARIY VA USLUBIY TAHLILI.....	441
<b>Azimov Bobir Fattohevich</b>	
O'ZBEKISTON MAHALLIY BYUDJETLARINING O'ZIGA XOSLIGI VA UNING DAROMAD MANBALARINI KUCHAYTIRISH MEKANIZMINING ROLINI OSHIRISH MASALALARI.....	445
<b>Safarmurodova Marjona To'raqulovna</b>	
DAVLAT OLIY TA'LIM MUASSALARIDA MOLIVAVIY MUSTAQILLIK SHAROITIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI.....	450
<b>Adizov Bobir Baxtiyorovich</b>	
SIRKULAR IQTISODIYOT SOHASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	457
<b>Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li</b>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA ETNOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA UNING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI.....	462
<b>Kunnazarova Orazhan</b>	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA INVESTITSION FAOLLIK MEKANIZMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	468
<b>Asadova Shaxzoda Zabikhillo qizi</b>	
MINTAQA IMIJI VA INVESTITSIYA OQIMLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	472
<b>Ibodullayev Dilshod Ibragimovich</b>	
INSON KAPITALI BARQAROR RIVOJLANISH MANBAI SIFATIDA.....	480
<b>Alimova Oydin Baxtiyorovna</b>	



# INSON KAPITALI BARQAROR RIVOJLANISH MANBAI SIFATIDA

**Alimova Oydin Baxtiyorovna**

O'zbekiston Milliy Universiteti,

“Davlat va korporativ strategiyalar” mutaxassisligi magistranti

Email: [baxtiyarovnaoydin16@gmail.com](mailto:baxtiyarovnaoydin16@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inson kapitalining iqtisodiy mohiyati, mamlakatimizda inson kapitalining tarkibi bo'yicha rivojlanganlik darajasi hamda uning global va milliy darajada barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, inson kapitaliga investitsiyalarning bugungi kundagi ahamiyati hamda uni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajriba asosida mamlakatimizda amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** inson kapitali, barqaror rivojlanish, inson kapitaliga investitsiyalar, raqobatbardoshlik, iqtisodiy o'sish.

**Abstract.** This article highlights the economic essence of human capital, the level of human capital development in our country in terms of its composition, and its role in implementing the principles of sustainable development at both the global and national levels. It also provides suggestions and recommendations regarding the current importance of investments in human capital and the measures that should be implemented in our country based on foreign experience in its development.

**Keywords:** human capital, sustainable development, investments in human capital, competitiveness, economic growth.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются экономическая сущность человеческого капитала, уровень развития человеческого капитала в нашей стране с точки зрения его структуры, а также его роль в реализации принципов устойчивого развития на глобальном и национальном уровнях. Также приводятся предложения и рекомендации относительно актуальности инвестиций в человеческий капитал и мер, которые целесообразно реализовать в нашей стране на основе зарубежного опыта его развития.

**Ключевые слова:** человеческий капитал, устойчивое развитие, инвестиции в человеческий капитал, конкурентоспособность, экономический рост.

## KIRISH

Inson kapitali barqaror iqtisodiy tizimning fundamental tayanchi bo'lib xizmat qiladi, chunki u jamiyatning to'plangan milliy boyligini hisoblashda muhim komponent hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, har qanday davlatning uzoq muddatli barqaror rivojlanish traektoriyasiga erishishi bevosita yuqori malakali inson kapitalining sifati va uni rivojlantirish darajasiga bog'liq. Barqaror rivojlanish ishlab chiqarish va tabiiy kapitalning ko'payishini o'z ichiga oladi, shu bilan birga, inson kapitalini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki har qanday jamiyatning asosiy boyligi uning inson resurslari hisoblanadi. Barqaror o'sish talablari nafaqat bugungi avlodning ortib borayotgan ehtiyojlarini qondirishni, balki ushbu ehtiyojlarni kelajak avlodlarning resurs salohiyatini saqlab qolgan holda muvofiqlashtirishni ham nazarda tutadi. Ushbu maqsadga erishishning asosiy shartlaridan biri inson kapitalini doimiy ravishda rivojlantirishga strategik investitsiyalar kiritishdir. Shunday qilib, mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish, uni miqdor va sifat jihatdan oshirish jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishining sharti, asosi va maqsadi hisoblanadi.

Xalqaro tajribalar shuni yaqqol ko'rsatmoqdaki, yuqori intellektual salohiyatga, kasbiy ko'nikmalarga va mustahkam sog'liq ko'rsatkichlariga ega inson resurslarini shakllantirgan mamlakatlar ko'pincha yuqori YaIM o'sish sur'atlariga va turmush darajasining yaxshilanishiga erishadi.

World Bank hisob-kitoblariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlar milliy boyligining atigi 5 foizi tabiiy resurslar, 18 foizi jismoniy kapital hissasiga to'g'ri keladi, asosiy ulushni esa 77 foiz bilan bilim va uni boshqarish qobiliyati, ya'ni inson kapitali tashkil etadi. O'zbekistonda esa ushbu ko'rsatkichlar tarkibida xomashyo kapitali 70 foizni, jismoniy kapital 35 foizni hamda inson kapitali 51 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, mamlakatimiz inson



kapitali sifati bo'yicha dunyoda 57-o'rinni egallaydi. Shu munosabat bilan, inson kapitalining mamlakatimizning 2030-yilgacha mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasida belgilangan iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy sohalar taraqqiyotidagi o'rni tobora ortib bormoqda. Uning tarkibiy qismi bo'lgan ta'lim va sog'liqni saqlash tizimi sifatini oshirish, aholi turmush darajasini yuksaltirish hamda munosib mehnat sharoitlarini yaratish kabi dolzarb vazifalar izchil amalga oshirilmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inson kapitalining iqtisodiy kategoriya sifatida tadqiq qilinishi bosqichma-bosqich shakllanish tarixiga ega. Mintaqaviy va xorijiy iqtisodiy fanlarda inson kapitaliga turlicha ta'riflar berilgan bo'lib, bugungi kunda uning sifati va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri tobora ko'proq muhokama qilinmoqda. "Inson kapitali" nazariyasining eng mashhur vakillari Theodore Schultz va Gary Becker hisoblanadi. Theodore Schultz inson kapitalini ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, sog'liq va tajriba orqali shakllanadigan resurs sifatida talqin qilib, uni iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri deb hisoblagan. Gary Becker esa inson kapitalini har bir shaxs ega bo'lgan bilim, ko'nikma va motivatsiyalar zaxirasi sifatida tavsiflaydi<sup>1</sup>.

Inson kapitali tushunchasi keng qamrovli bo'lib, turli tarkibiy qismlardan iborat. Barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan inson kapitalini shakllantiruvchi asosiy omillar qatoriga ta'lim, fan va innovatsiyalar kiradi. Inson kapitali rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan ko'plab mamlakatlarda ushbu omillar o'zaro chambarchas bog'liq deb qaraladi, chunki ularning integratsiyalashgan va izchil rivojlanishi dinamik hamda barqaror iqtisodiy o'sishni, bandlikni va raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qiladi<sup>2</sup>.

Robert Lucas va Paul Romer tomonidan ishlab chiqilgan endogen iqtisodiy o'sish nazariyasida inson kapitali innovatsiyalar va texnologik taraqqiyotning asosiy manbai sifatida talqin qilinadi. Ularning fikriga ko'ra, inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki yangi bilimlar yaratish, ilmiy salohiyatni kuchaytirish va texnologik yangilanish jarayonlarini tezlashtirish orqali iqtisodiy rivojlanishni uzoq muddatli asosda ta'minlaydi. Shu bois, zamonaviy iqtisodiyotda inson kapitali mamlakatlarning global raqobatbardoshligini belgilovchi eng muhim omillardan biri sifatida qaralmoqda.

Bundan tashqari, United Nations Development Programme va World Bank hisobotlarida inson kapitalining rivojlanish darajasi aholi farovonligi, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash bilan bevosita bog'liq ekanini ta'kidlanadi. Ayniqsa, sifatli ta'lim, tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati, zamonaviy kasbiy tayyorgarlik tizimi va munosib mehnat sharoitlari inson kapitalining sifatini oshiruvchi asosiy omillar sifatida qayd etiladi. Shu nuqtai nazardan, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi inson kapitalining barqaror iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholashda miqdoriy va sifat tahlillariga tayanadi. Ilmiy tahlil jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil hamda taqqoslash usullaridan foydalanildi. Mazkur usullar inson kapitalining tarkibiy elementlari va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini chuqurroq o'rganish imkonini berdi.

Tahlillar uchun statistik ma'lumotlar bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining yillik hisobotlari, World Bankning ta'lim va sog'liqni saqlash bo'yicha indikatorlari hamda inson kapitali indeksi bo'yicha global reytinglardan foydalanildi. Ushbu manbalar inson kapitalining rivojlanish darajasi, uning iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligi va xalqaro tajribalarni qiyosiy baholash imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning ilmiy asoslarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, "barqaror rivojlanish" tushunchasi keng ma'noda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik quyi tizimlarning uyg'unlashuvi hamda muvozanatli rivojlanishi sifatida talqin qilinadi. "Barqaror rivojlanish" tushunchasining markazida inson huquqlarini ta'minlash tamoyili yotadi. Unga ko'ra, muvozanatli rivojlanish uchun zarur bo'lgan resurslar va imkoniyatlardan foydalanish nafaqat bugungi, balki kelajak avlodlar uchun ham kafolatlanishi lozim.

Ushbu konsepsiya zamonaviy ko'nikmalar, malakalar va tajribalarni o'z ichiga olgan holda yanada rivojlantirildi. Bu esa inson kapitalining innovatsion sifatini oshirishga va uni barqaror rivojlanish markaziga qo'yishga xizmat qiladi. Natijada, inson kapitali har qanday mamlakatning iqtisodiy samaradorligini oshirishda asosiy rol o'ynashi haqidagi yondashuv shakllandi. Inson kapitalini baholash uchun xalqaro reytinglardagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qator ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Ularning o'ziga xosligi mutaxassislar tomonidan

1 Becker, G. (1994). Human Capital. 3rd ed. Publisher New York, Columbia University Press

2 Armstrong, M. (2008). Strategic human resource management. 4th Edition. Publisher London, Kogan Page, 2008.

aniqlangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sifat ko'rsatkichlarining yuqori ahamiyatiga asoslanadi. Bu nafaqat yetakchi davlatlarni aniqlash, balki ularning muvaffaqiyat omillarini ham belgilash imkonini beradi.


World Economic Forum har yili "Human Capital Index" hisobotini e'lon qiladi. Ushbu indeks dunyoning 174 ta davlatini qamrab olib, bolalarning tug'ilganidan boshlab 18 yoshgacha bo'lgan davrda to'playdigan bilim, ko'nikma va salomatlik darajasini baholaydi. O'zbekiston 2020-yilgi hisobotda 0,62 ball (62 foiz) natijani qayd etgan. Bu shuni anglatadiki, bugungi kunda O'zbekistonda tug'ilgan bola to'liq sifatli ta'lim va sog'liq imkoniyatlariga ega bo'lgan holatdagi potensial unumdorligining 62 foiziga erishishi mumkin.

O'zbekistonning ko'rsatkichi o'rta daromadli davlatlar o'rtacha ko'rsatkichidan (0,48) yuqori, biroq Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi o'rtacha ko'rsatkichidan (0,69) biroz pastroq darajada joylashgan. MDH davlatlari orasida esa O'zbekiston Qozog'istondan keyin ikkinchi o'rinda bo'lib, Qirg'iziston (0,59) va Tojikiston (0,50) ko'rsatkichlaridan yuqori natijani namoyish etganini ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval. 2020-yil uchun tanlangan mamlakatlarning inson kapitali indeksi va komponent ko'rsatkichlari<sup>3</sup>

	IK indeksi (2020)	IK reytingi (2020)	O'rtacha umr ko'rish davomiyligi (2023)	Kutilayotgan ta'lim yillari (2023)	Aholi jon boshiga YaIM \$ (2023)
Rossiya	0,6814	41	73	11,60	44,269
Qozog'iston	0,6285	55	74	11,80	38,515
O'zbekiston	0,6228	57	72	11,90	11,107
Tojikiston	0,5041	110	71	10,10	4,964
Qirg'iziston	0,5966	72	72	11,20	7,298

Inson kapitalining o'sish darajasi va sifatini tavsiflovchi yana bir muhim global ko'rsatkich United Nations Development Programme doirasida ishlab chiqilgan Inson taraqqiyoti indeksidir. Mazkur indeks inson kapitalining rivojlanish darajasini baholashda keng qo'llaniladi va mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini aniqlash imkonini beradi. Ko'plab boshqa ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, unda tug'ilishdagi o'rtacha umr ko'rish davomiyligi, ta'lim darajasi, aholining savodxonligi va munosib turmush darajasi alohida e'tiborga olinadi. Ushbu omillar inson kapitalining sifati va mamlakatning barqaror rivojlanish salohiyatini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi (2-rasm).



2-rasm. Markaziy Osiyo mamlakatlari va Rossiya Federatsiyasining inson taraqqiyoti indeksi<sup>4</sup>

Ushbu rasmda Markaziy Osiyo mamlakatlari va Rossiya Federatsiyasining Inson taraqqiyoti indeksi yildan yilga barqaror o'sib borayotgani ko'rsatilgan. O'zbekiston 0,73 ballni qayd etib, Rossiya va Qozog'istondan keyingi o'rinni egallagan. Bu mamlakatimizda aholi turmush darajasi, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi ortib borayotganidan dalolat beradi.


3 Jahon banki ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

4 Muallif ishlanmasi.



Inson taraqqiyoti ko'rsatkichlari Barqaror rivojlanish indeksini hisoblashda ham bevosita inobatga olinadi. Mazkur indeks dunyoning 157 mamlakati uchun 2015-yildan buyon United Nations sammitida qabul qilingan 2030-yilgacha bo'lgan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlariga oid 100 ta ko'rsatkich asosida shakllantiriladi. Indeksda mamlakatlarning qashshoqlikni qisqartirish, gender tengligini ta'minlash, aholini sifatli ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlari bilan qamrab olish kabi yo'nalishlardagi natijalari baholanadi.

2024-yilda Barqaror rivojlanish maqsadlari indeksi bo'yicha Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida Qirg'iziston va O'zbekiston yetakchi o'rinlarni egalladi (3-rasm).



3-rasm. Markaziy Osiyo mamlakatlari Barqaror Taraqqiyot Maqsadlari Indeksi bo'yicha 2024-yilgi reytingi<sup>5</sup>

Ushbu rasmda O'zbekiston 73,08 ball bilan 150 ta mamlakat orasida 62-o'rinni egallagani ko'rsatilgan. "Inson kapitalini o'lchashning mavjud nazariy va metodologik konsepsiyalari ma'lum darajada cheklangan deb baholanadi, chunki ular asosan makro darajada inson kapitalining miqdoriy ko'rsatkichlarini aks ettiradi va uning mezo hamda mikro darajadagi miqdoriy va sifat parametrlarini belgilovchi omillar tizimini to'liq qamrab olmaydi". Shu munosabat bilan, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish dinamikasini chuqurroq tushunish uchun inson kapitalining sifati va unga bevosita ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'rtacha umr ko'rish davomiyligi. O'zbekistonda 2025-yilda doimiy aholining tug'ilishdagi kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 75,1 yoshni tashkil etdi. Inson taraqqiyoti indeksining ushbu tarkibiy ko'rsatkichi bo'yicha O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar orasida barqaror o'sishni namoyish etmoqda va 2015-yildan buyon sezilarli ijobiy natijalarga erishdi. Hududlar kesimida 2025-yilda eng yuqori umr ko'rish davomiyligi Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Farg'ona viloyati va Samarqand viloyati da qayd etilgan bo'lsa, nisbatan pastroq ko'rsatkichlar Qoraqalpog'iston Respublikasi va Namangan viloyatida kuzatildi. Mazkur o'sish sog'liqni saqlash tizimining takomillashuvi, tibbiy xizmatlar sifati oshishi va aholi turmush darajasining yaxshilanishi bilan izohlanadi. O'zbekiston – 2030 strategiyasida ushbu ko'rsatkichni 78 yoshga yetkazish maqsad qilib belgilangan.

Kutilayotgan ta'lim yillari. Bu omil Human Development Indexning muhim tarkibiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, maktabga kirish yoshidagi bolaning mavjud qamrov darajalari saqlanib qolgan taqdirda necha yil ta'lim olishi mumkinligini anglatadi. Mazkur ko'rsatkich ta'lim tizimining qamrov darajasi, majburiy ta'lim muddati va oliy ta'lim imkoniyatlarini aks ettiradi. O'zbekiston uchun kutilayotgan ta'lim yillari 12,5 yilni tashkil qiladi. Ushbu ko'rsatkich O'zbekistonni HDI reytingida 107-o'ringa (HDI = 0,740) olib chiqdi. Kutilayotgan ta'lim yillari inson kapitali sifatini baholashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning yuqori bo'lishi iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanish sur'atlarini tezlashtiradi. Inson kapitalini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlovchi ta'lim siyosati barcha aholining sifatli va inklyuziv ta'limdan foydalanish imkoniyatini kengaytirishga qaratilgan. Hukumatlar tengsizlikni qisqartirish, ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish hamda ta'lim va ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar orqali umrbod ta'lim olish imkoniyatlarini yaratishi mumkin. Natijada bu Sustainable Development Goal 4ga tezroq erishishga xizmat qiladi.

Umumiy kasallanish. 2024-yil yakunida O'zbekiston Respublikasida aholining kasallanish darajasi har 100 000 aholiga nisbatan 57 087,6 ta birinchi marta tashxis qo'yilgan holatni tashkil etdi va 2023-yilga nisbatan 5,3


5 Statistik ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

foizga kamaydi. Kasallanishlar tarkibida eng yuqori ulush nafas olish tizimi (20 foiz) va ovqat hazm qilish tizimi (19 foiz) kasalliklariga to'g'ri keladi. Hududlar kesimida eng yuqori kasallanish darajasi Toshkent shahrida (har 100 ming aholiga 142 803 ta), Xorazm viloyatida (62 230 ta) va Andijon viloyatida (61 104 ta) qayd etilgan. Eng past ko'rsatkichlar esa Jizzax viloyati (35 441 ta), Surxondaryo viloyati (38 430 ta) va Namangan viloyatida (40 055 ta) kuzatilgan.

Tadqiqot uchun eng muhim ko'rsatkichlardan biri Inson kapitali indeksi hisoblanadi. U dunyoning turli mamlakatlarida, jumladan, O'zbekistonda ham inson kapitalining rivojlanish darajasini ifodalovchi asosiy global indikatorlardan biridir. Ushbu indeks World Economic Forum tahliliy guruhi tomonidan 2013-yilda ilk bor hisobot shaklida ishlab chiqilgan va 122 ta iqtisodiyotni qamrab olgan. Mamlakatlarda inson kapitalining rivojlanish darajasini baholashda 46 ta ko'rsatkich hisobga olinadi va ular quyidagi to'rtta asosiy guruhga birlashtiriladi:

- ta'lim va o'qitish;
- sog'liqni saqlash;
- bandlik;
- infratuzilma, huquqiy himoya va ijtimoiy mobillik.

Shunday qilib, inson kapitalini baholashga oid turli yondashuvlarni tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, inson kapitalining barqaror rivojlanishida ta'lim tizimi yetakchi o'rin tutadi. 2025-yilda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ta'lim sohasiga jami 66,1 trillion so'm ajratildi, bu 2024-yilga nisbatan 11 trillion so'mga ko'pdir. Ta'limga ajratilgan mablag'lar ijtimoiy xarajatlarning eng katta qismini tashkil etib, 47,3 foiz ulushga ega bo'ldi. Shu sababli, ta'lim xarajatlari mehnat unumdorligini va natijada iqtisodiy o'sishni oshirishga qaratilgan muhim investitsiya sifatida qaraladi. Xalqaro tajriba ham inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o'sishga erishishda eng samarali omillardan biri ekanini tasdiqlaydi. Barqaror rivojlanish sharoitida inson kapitalining ahamiyati haqida so'z borganda, investitsiyalar va ularning inson kapitalini muntazam rivojlantirishdagi rolga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy o'sishga bevosita va bilvosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Inson kapitaliga investitsiyalar turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin (4-rasm).



4 – rasm. Inson kapitali rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar<sup>6</sup>

Ushbu rasmda inson kapitaliga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar professional bilimlar, kasbiy ko'nikmalar, qobiliyatlar, ijodiy salohiyat va boshqa kompetensiyalarni rivojlantirishga bevosita xizmat qiladigan investitsiyalarni o'z ichiga oladi. Bunday investitsiyalar ta'lim, malaka oshirish, qayta tayyorlash, sog'liqni saqlash va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash orqali inson kapitalining sifat jihatdan rivojlanishiga zamin yaratadi.

6 Muallif ishlanmasi. Manba: L. Sava, V. Tirsu. Human capital and sustainable development. European journal of accounting, finance and business. June 2022.



Inson kapitaliga bilvosita investitsiyalar esa xodimlarning kasbiy rivojlanishida, shuningdek, tashkilot tomonidan mavjud intellektual salohiyatdan samarali va uzoq muddat foydalanishda bilvosita ishtirok etadigan resurslarni anglatadi. Ular qatoriga mehnat sharoitlarini yaxshilash, ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, motivatsiya mexanizmlarini takomillashtirish va qulay institutsional muhit yaratish kabi omillar kiradi<sup>7</sup>.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda inson kapitali shunchaki ishlab chiqarish omili emas, balki barqaror va uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. U nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki ijtimoiy tenglik, ekologik muvozanat va innovatsion transformatsiyani bir vaqtning o'zida amalga oshirish imkonini beradi. Maqolada ko'rib chiqilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, barqaror rivojlanishdagi muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biri inson kapitalini sifat va miqdor jihatdan takomillashtirishdir.

Inson kapitalining muhim tarkibiy qismi bo'lgan ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ayniqsa STEM yo'nalishlariga — fan, texnologiya, muhandislik va matematikaga — alohida e'tibor qaratgan holda investitsiyalar hajmini oshirish zarur. Shuningdek, sog'liqni saqlash, kasbiy tayyorgarlik, innovatsion ko'nikmalarni rivojlantirish va umrbod ta'lim tizimini kengaytirish inson kapitalining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, davlatning raqobatbardoshligi uning tabiiy boyliklari bilan emas, balki yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lgan inson resurslari bilan belgilanadi. Shu bois inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiyalarni kengaytirish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish hamda yoshlarning zamonaviy kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish mamlakatning barqaror iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Spirin I. V., Grishaeva Yu. M. Human Capital as a Tool of Ensuring Sustainable Development. – 2020. – No. 709.
2. Е. А. Колос Генезис формирования экономики знаний страны на основе развития человеческого капитала // Экономика. Профессия. Бизнес. – 2016. – № 2.
3. Theodore Schultz Investment in Human Capital: The Role of Education and Research. – New York: Free Press; Macmillan, 1971.
4. Gary Becker Human Capital. – 3rd ed. – New York: Columbia University Press, 1994.
5. Michael Armstrong Strategic Human Resource Management. – 4th ed. – London: Kogan Page, 2008.
6. Morozova T., Kozyreva G., Belaya R. Principles of Human Capital Measurement: Modern Approaches and Methods // Diskussiya. – 2017. – No. 8(82). – P. 26–32.
7. Sava L., Tirsu V. Human Capital and Sustainable Development // European Journal of Accounting, Finance and Business. – June 2022.
8. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Sog'liqni saqlash sohasiga oid statistik ma'lumotlar.
9. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Yalpi ichki mahsulot bo'yicha 2025-yil yanvar–mart oylari statistik ma'lumotlari.

7 L.Sava, V.Tirsu. Human capital and sustainable development. European journal of accounting, finance & business. June 2022

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)